

MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGI SAMARALI ISH TASHKIL ETISHIDA UNGA QANDAY YORDAM ZARUR?

Yunusova Dilnoza Alisher qizi

Xorazm viloyati Xiva shahar 6-maktab psixologi

Madrimova Dilfuza Ismailovna

Xorazm viloyati Xiva shahar 11-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab psixologi maktab amaliyotchi psixologining samarali ish tashkil etishida to'sqinlik qiluvchi kamchiliklar haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: psixolog, rivojlanish, pedagoglar jamoa, jismoniy va aqliy qobiliyat, iqtidorli o'quvchilar.

KIRISH

Amaliyotchi psixolog kasbi individual va guruhli psixologik yordam , diagnostika, maslahat va psixoterapeutik mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. U umumiy va klinik psixologiya bo'yicha bilimga ega bo'lishi, rivojlanish psixologiyasini tushunishi, psixodiagnostika va oilaviy terapeya usullaridan foydalangan holda oila va shaxslar aro munosabatlar bilan ishlashi kerak.

Amaliyotchi psixolog muayyan usullardan foydalangan holda psixodiagnostika o'tkazadi. Shaxsiy xususiyatlar va idrokni, temperament turini, hatti-harakatlarni hisobga olgan holda mijoz bilan ishalash rejasini tuzadi. Mijozga individual yeki guruh bilan ishlayotgan bo'lsa, guruh ichida maslahatlar beradi.

Zamonaviy psixolog nimalarni bilishi va nimalarni bajara olishi kerak?

- Mayjud muammolarga tashxis qo'yish va ularni bartaraf eta olish;
- Tashxis uchun muhim bo'lgan test. So'rovnomalarni tuzish, o'tkazish va taxlil qilishni bilish;
- Psixologik tadqiqotlar va maslahatlar o'tkazish;
- Mijozning psixologik holatini taxlil qilish;
- Shaxsning psixologik portretini chizish;
- Treninglar tashkil etish;

- Markaziy asab tizimining anatomiyasi va tana tuzilishini bilishi ;
- Umumiy kasalliklarning belgilari va ayniqsa, nevrologiya bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni bilishi kerak. Chunki psixosomatik holatlar ko'p uchraydi.
- Hujjatlarni yuritish.

Amaliyotchi psixolog nimani davolaydi?

Bu soha mutaxassislari insonlardagi jiddiy ruhiy kasalliklar bilan bog'liq bo'lмаган, ya'ni ruhan sog'lom insonlardagi shaxsiy, oilaviy va kasbiy qiyinchiliklarni yengishda yordamlashadi. Amaliyotchi psixolog insonning umumiy psixologiyasi, yosh va ijtimoiy psixologiyani yaxshi bilishi zarur. Shu bilan birga psixoemotsional zo'riqish va stressli vaziyatlardan chiqish bo'yicha psixodiagnostika, yordam va maslahat xizmatlarini ko'rsatadi.

Psixolog kasbining kamchiliklari:

- Uzoq vaqt o'qish. Ya'ni amaliyotchi psixolog oliy ma'lumotli bo'lishi, amaliyotni o'tashi, katta tajriba orttirishi, doimiy ravishda rivojlanishi va malaka oshirishi kerak.
- Doimiy terapeyada bo'lish zarurati
- Doimiy negati va muammolar ichida bo'lganligi uchun hissiy zo'riqishda bo'ladi.
- Yuqori mas'uliyatda bo'lishi talab etiladi.

Bugungi kunda ko'pchilik umumiy o'rta ta'lif maktablari o'zining psixologlariga ega. Biroq shunga qaramay direktor va o'qituvchilar ko'pincha psixologning qo'lidan nima kelishi mumkinligini yaxshi tasavvur etolmaydilar. Ularga psixolog hamma muammolarini bir zumda hal qilib beradigandek tuyuladi. Ammo psixologning mакtabda ish boshlaganidan keyin mакtabda tashqi jihatdan hech narsa o'zgarmaganini ko'rishgach, ularda «Maktab psixologining o'zi nima keragi bor?» degan tipdagi savollar tug'iladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mакtabdagi amaliy ish uchun psixolog o'rgangan nazariy bilimlar yetmay qoladi.

Maktabga kelib qolgach, psixologlar ko'pincha amaliyotning ular oldiga qo'ygan muammolaridan dovdirab qoladilar. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganligini aniqlashtirib olishi kerak. Psixologik xizmatning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o'rta ta'lif maktabida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Bolalarning har-bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to‘laqonli rivojlanishini ta’minlash, ularda o‘z-o‘zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish:

2. Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologik- pedagogik o‘rganilishini taminlash:

3. Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish.

Shunday qilib, psixolog mакtabga avvalo bolalar uchun keladi. Lekin bu psixolog o‘qituvchilar bilan ishlamaydi, degani emas.

Psixolog mакtabda yengib o‘tishi kerak bo‘lgan bиринчи то‘сиq - bu mакtabning pedagogik jamoasiga qо‘shila олишdir. Bordi-yu psixolog bu murakkab organizmga qо‘shilib keta olmasa, o‘z ishida muvaffaqiyatga erishishi dargumondir. Psixolog adaptatsion davrining qiyin kechishiga bir necha omil sabab bo‘ladi. Ko‘pincha o‘qituvchilar psixologni bolalarni qanday qilib tarbiyalashni, qanday yashashni o‘rgatuvchi inson sifatida ko‘rib, dastlabki kezlardayoq unga nisbatan salbiy ustanovkani shakllantirib oladilar. O‘z-o‘ziga ishonchi sust bo‘lgan o‘qituvchilar psixologni go‘yo uning kamchiliklarini oshkor etuvchi shaxs sifatida idrok etib, uni qandaydir inspektor sifatida qabul qiladilar. Bular esa psixologning mакtab sharoitiga tez ko‘nikib, mакtab hayotiga chuqur singib ketishga halaqit beradi. Buning oldini олиш uchun psixolog o‘qituvchilar bilan o‘zaro teng

munosabatlarga kirishishi, ikkala taraf ham o‘zini bilag‘on qilib ko‘rsatmasligi, eng muhim bir-birini raqib deb hissoblamasligi zarur. Shunga erishish kerak-ki, o‘qituvchilar psixologni ularga yordam bera oladigan boshqa mutaxassis sifatida qabul qilsinlar

Maktabdagi ilk qadamlardanoq psixolog ma’muriyatga ularning faoliyat doirasiga nimalar kirmasligini, mo‘jizalar ko‘rsatish uning qо‘lidan kelmasligini tushuntirishi lozim.

O‘qituvchi bilan bo‘lgan suhbatda u yoki bu bolaning muammosi psixologik muammo bo‘lмагани uchun u bo‘yicha hech narsa qila olmasligini tan олишдан qо‘rqmaslik kerak. Dastlabki qadamlarni qо‘yishda ota - onalar bilan aloqa o‘rnatish juda muhim. Dastlabki aloqa ixtiyoriy xarakterda bo‘lishi va o‘zi murojaat qilgan ota-onalar bilan amalga oshirilishi kerak. Buning uchun psixolog alohida kun va soatlarni ajratishi lozim.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktabida ishni boshlashdan avval psixolog

1. O'zining pedagoglar jamoasi va maktab ma'muriyati bilan bo'lgan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishi.

2. O'z ishining asosiy maqsadi - bu bolaning optimal rivojlanishini ta'minlash ekanini doim yodda saqlashi.

3. O'zining faoliyatida profilaktik ishga u bilan bevosita bog'liq bo'lgan diagnostik va rivojlantiruvchi ishga alohida e'tibor bilan qarashi lozim bo'ladi.

Demak, psixologning zamonaviy funksional vazifalari quyidagicha:

a) o'quvchilarning (tarbiyalanuvchilarning) muassasalarda tarbiyalash va o'qitish jarayonida ruhiy, jismoniy (somatik) va ijtimoiy farovonligini muhofaza qilishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyatni amalga oshirish [6];

b) Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq shaxs huquqlarini himoya qilishga, ta'lim muassasasi ijtimoiy sohasini uyg'unlashtirishga ko'maklashish va ijtimoiy jihatdan ko'nika olmaslik hollari yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

d) o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va turli ko'rinishdagi psixologik yordam (psixokorreksiya, reabilitatsiya va maslahat) berish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar), ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), pedagogik jamoaga aniq muammolarni hal qilishda yordam berish;

e) turli yo'nalish va maqsadlardagi psixologik diagnostikalarni o'tkazish, ruhiy, jismoniy va aqliy, qobiliyat, moyillik, imkoniyat kabi sifatlarni aniqlash uchun testlar o'tkazish, test natijalarini tahlil qilish va baholash;

f) bolalarni birinchi sinfga qabul qilish komissiyasi tarkibida bolalarni olti yoshdan o'qishga tayyorligini aniqlashda ishtiroy etish va boshqalar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, psixolog o'z vazifasini yaxshi bajara olganda maktabda psixologik muxit sog'lom bo'ladi. Amaliyotchi psixolog sifatida muktab muhitida ishlash murakkab va ko'p qirrali bo'lib, bu jarayonda bolalar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan olib

boriladigan ishning tizimli tahlili, har bir ishtirokchi manfaatini inobatga olgan holda psixologik-pedagogik yondashuvlarni qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tayyorgarlik jarayoni ko'p hollarda amaliyotchi psixologning maktab sharoitida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan ushbu ko'nikmalarни yetarli darajada shakllantira olmaydi.

Kasbiy rivojlanish esa faqat oliy ta'lim davri bilan cheklanmay, balki maktab psixolog o'z faoliyatini boshlagach, uzluksiz davom etishi lozim. Chunki maktab muhitida psixolog o'z kasbiy faoliyatini yuritish davomida ko'plab yangi muammolar va vaziyatlarga duch keladi. Shunday sharoitda, psixologda mavjud nazariy bilimlar va boshlang'ich amaliy ko'nikmalar yetarli bo'lmay qoladi. Shu bois maktab amaliyotchi psixologining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash jarayoni uning butun ish faoliyati davomida doimiy va tizimli tarzda yo'lga qo'yilishi zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурахманова, С. Е. (2016). Современные транспортные магистрали Великого шелкового пути в Евразии. Молодой ученый, (3), 723-726.
2. Собиржонова, М. В., Атаханова, Ю. Ю., & Назарова, М. Т. (2018). СЕСТРИНСКОЕ ДЕЛО В ПЕДИАТРИИ. Мировая наука, (12 (21)), 396-399.
3. Собиржонова, М. В., Атаханова, Ю. Ю., & Холматова, Ё. Н. (2019). МИОПИЯ ПРОБЛЕМА XXI ВЕКА. Мировая наука, (11 (32)), 298-301.
4. Содикова, А. Х. (2023). ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Science and innovation in the education system, 2(5), 118-124.
5. Содикова, А. Х. (2019). Признаки процесса обучения. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА, 49.
6. Содикова, А. (2023). New Uzbekistan—The Value of Membership in the Continuous Education System. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 31(31).